

ALLERGIK KASALLIKLARNING KELIB CHIQISHI VA CHORA-TADBIRLARI

Pardaboyeva S.A., Sirocheva Sh.M., Quranboeva M.D., Shermatova I.B.

Annotatsiya. Allergiya (yunoncha αλλεργία — begonaga ta'sir) — organizmning spetsifik holati, allergen ta'sirida yuzaga keladi. Bunda shu organizm shu allergenga sezgir bo'ladi. Gipersezgirlikning tez yoki sekin turlari ko'rinadi. Idiosinkraziyadan antitelolar paydo bo'lishi bilan farqlanadi. Hozirgi kunda allergik kasalliklar borgan sari ko'payib ketmoqda. Eng xavfli tarafi bu kasallik kattalar va bolalarni ham birdek qiynamoqda. Shuning uchun ham ko'pgina olimlar shu kasallik bo'yicha izlanishlar olib bormoqda. Ushbu maqolamizda olimlarning allergik kasalliklar bo'yicha mulohazalarini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar. Allergiya, allergenlar, rinit, astma, profilaktika.

Abstract. Allergy (from the Greek allergia - exposure to a foreigner) is a specific state of the body, caused by the influence of an allergen. In this case, this organism becomes sensitive to this allergen. Both rapid and slow types of hypersensitivity are seen. It is distinguished from idiosyncrasy by the appearance of antibodies. Nowadays, allergic diseases are increasing more and more. The most dangerous part is that this disease afflicts adults and children alike. That is why many scientists are conducting research on this disease. In this article, we can see the opinions of scientists on allergic diseases.

Key words. Allergy, allergen, rhinitis, asthma, prevention.

Kirish. Allergik kasalliklar genetika orqali o'tadigan va atrof-muhit omillari ta'sirida yuzaga keladigan bo'lishi mumkin. Atrof-muhitdagi salbiy o'zgarishlar tufayli so'nggi o'n yilliklarda allergiya tarqalishining o'sishi kuzatilmoqda. Shu sababli ko'plab olimlar allergiyani kelib chiqish sabablari va ularni davolash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Respublikamizda allergolok shifokorlar kamligi tufayli, ularni ko'paytirish uchun chora-tadbir dasturlari ishlab chiqilmoqda. Aholini sifatli dori-vositalari bilan ta'minlash uchun farmatsevtika sohasiga ham o'zgartirishlar kiritilmoqda, shu bilan birga oddiy aholi kasallik bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi uchun turli tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Biz yuqoridagilarni inobatga olib, bir qancha ilmiy maqolalardagi fikrlarni tahlil qilmoqchimiz.

Hozirgi vaqtda allergen bo'lishi mumkin bo'lgan mingdan ortiq turli moddalar aniqlangan. Ular ikkita katta guruhga bo'linadi: ekzoallergenlar va endoallergenlar.

I. Ekzoallergenlar - insonni o'rab turgan muhitda yashaydi va o'z navbatida ular ham qator kichik guruhlarni tashkil qiladi:

-**Oziq-ovqat allergenlari** 2 guruhga bo'linadi: Birinchisi — shartsiz (obligat) allergenlar: sitrus mevalar, shokolad, kofe, asal, mevalar, yong'oqlar, tuxum, baliqlar, sut, tovuq go'shti; ikkinchi — shartli (fakultativ) guruh bo'lgan: olma, sabzi, kartoshka, un va boshqalar.

-**Epidermal allergenlar** (turli hayvonlarning juni, ot qayzg'og'i). Epidermal allergenlarga nisbatan sezuvchanlik ko'pincha tez sodir bo'ladigan reaksiyalar tipida va odatda oziq-ovqat va uy-ro'zg'or allergiyalari bilan birgalikda kechadi. Bolalarda bu kasallik 20 foiz holatlarda respirator allergoz tipida o'tadi.

-**Bakterial allergenlar** (ko'proq shartli patogen mikroblar - streptokokklar va boshqalar). Sezuvchanlik odatda tishlarda, bodomcha bezlarda, ichaklarda, jigarda, bronx-o'pka yo'llarida surunkali infeksiya o'chog'i bo'lgan hollarda rivojlanadi. Bunda kasallikning infeksiyon-allergik turi aniqlanadi: astma, rinit, qavarchiq va Kvinke shishi.

-**Zamburug'li allergenlar** (mog'or zamburug'larining va achitqi zamburug'larining sporalari). Asosan patogen bo'lmagan zamburug'lar turi.

-**Virusli allergenlar** (hujayra protoplazmasi bilan oldindan birikkan virus).

-**Gelmintli allergenlar** (gijjalar va ularning zaharlari).

-**Insekt allergenlar** (asalari zahri, chivinlar, hasharotlar ustki qobig'i qoldiqlari).

II. **Endoallergenlar**. Ular sog'lom inson organizmida doimo joylashgan, lekin qalin qobiqqa o'ralgan bo'ladi, umumiy qon oqimiga tushmaydi. Shuning uchun faqat ularni boshqa to'qimalardan ajratib turuvchi to'siqlar buzilgandagina o'z ta'sirini namoyon qiladi. Ulardan eng asosiylari: qalqonsimon bezning tireoglobulini, muskul tolalaridagi mielin, ko'z gavhari oqsili, nerv o'tkazuvchi tolalar oqsili, sperma (urug' suyuqligi) [1].

Allergiyaning turlari

Allergiya asosan uch xil turda bo'ladi. Bulardan birinchisi oziq-ovqatga allergiya, ya'ni sitrus mevalar rangli taomlar, ikkinchisi uchuvchan moddalarga, ya'ni chang par yoki iforga, uchinchi turida esa jonzotlarga bo'lgan allergiya tushuniladi, bularga mushuk, kuchuk, chivin chaqishiga yoki biror hayvonning kuchsiz zahriga ham allergiya huruj qilishi mumkin [2].

Allergik rinit – yuqori nafas yo'llarining kasalligi bo'lib, organizmda allergik reaksiyaning paydo bo'lishi tufayli yuzaga keladi. Bu kasallik ko'pincha mavsumiydir (gul changiga allergiya bo'lsa). Rinit o'tkir va surunkali bo'lishi mumkin. **Kasallik sabablari:** Burun shilliq qavatining shishishi tufayli rinit paydo bo'ladi. Allergik rinit dunyo bo'yicha keng tarqalgan bo'lib, hozirgi ushbu kasallikdan aholining 30%-50% aziyat chekmoqda. Ushbu patologiyaning rivojlanishida tibbiy-biologik va sanitar-gigiyenik omillarning ta'siri bilan bir qatorda atrof muhit omillarining ta'siri ham muhim o'rin tutadi. Kasallikni qo'zg'atuvchi asosiy sabablar – allergiya uyg'otuvchilar bo'lib, ulardan eng tarqalganlari – o'simlik changchilari, chang, uy hayvonlari tuklari,

kimyoviy moddalar, dori vositalari va zamburug'lar hisoblanadi. Atmosfera havosining ifloslanishi allergik rinitning kelib rivojlanishiga va qaytalanishiga sabab bo'lishi olimlarning tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha tasdiqlanmoqda [1,3,4].

Ovqatga allergiya - oziq-ovqatga nisbatan salbiy immunologik javob sifatida yuzaga keladi. Bu kasallik bolalarda tezroq tuzalishi mumkinligi, kattalarda esa bir muncha uzoq muddatga cho'zilishi aytilgan [5].

Allergik astma- allergik reaksiyalar nafas yo'llarining torayishiga va siqilib qolishiga olib kelaganda paydo bo'lgan astma turi. Bunday hollarda nafas olish yo'llari yangilanadi va bronxlari torayib qoladi, shuning uchun nafas olishning qiyinlashuvi, ko'krak qafasidagi siqilishlar va hirillash paydo bo'ladi [2].

Chora-tadbirlari

Allergiyaga moyil bo'lgan odamlarning ko'pligi sababli profilaktika choralarini ishlab chiqish kerak. Allergiyani oldini olishni yagona yo'li - bu atrof-muhitni yaxshilash va ovqatlanish odatlarini tartibga solish. Profilaktik choralarning samaradorligini baholash uchun ko'plab tadqiqotlar ishlab chiqishgan [6].

Birinchi profilaktika

Birlamchi allergiya profilaktikasidagi asosiy muammo xavf ostida bo'lgan bemorlarni aniqlash bo'lib qolmoqda. Oila tarixi doimo e'tiborga olinishi va atopik ota-onalarning bolalari diqqat bilan kuzatilishi kerak. Klinik kuzatuv, to'g'ridan-to'g'ri profilaktika amaliyoti va muntazam ravishda keyingi parvarish kerak. Bundan tashqari, allergik bolalarning ota-onalari zarur profilaktika yoki davolash choralarini ko'rish bo'yicha o'qitilishi kerak.

Ikkilamchi profilaktika

Ikkilamchi profilaktika allergik kasallikning rivojlanishi va kuchayishini oldini olishga qaratilgan. Yallig'lanishga qarshi va antiallergik dorilar bilan erta aralashuv allergiya bilan og'rikan bemorlarning hayot sifatini oshirishning kalitidir. Sensibilizatsiyalangan odamlarda ikkilamchi profilaktika allergenlardan qat'iy voz kechishni va ehtimol immunoterapiyani o'z ichiga oladi.

Uchinchi profilaktika

Uchinchi darajali allergiya profilaktikasi allergiya aniqlangan bemorlarda oxirgi organ allergik kasalliklarini kamaytirishga intiladi. Hozirgi kunda qo'llaniladigan eng keng tarqalgan misol immunoterapiyadir [7].

Tadqiqotlarning yana bir maqsadi, bir tomondan, oziq-ovqat, ayniqsa sigir sutiga sezgirlikni oldini olish, ikkinchidan, uy sharoitida chang allergenlariga, eng ko'p uchraydigan hayvonlar epiteliyasiga allergiyaning oldini olishdir. Ushbu chora-tadbirlar ma'lum darajada foydali bo'lsa-da, bu tadqiqotlar natijalari har doim ham ijobiy bo'lmagan, lekin ma'lum darajada kasallikni yengillashtiradi [6].

Allergik kasalliklarni davolashda kasallik paydo bo'lgan vaqtiga e'tibor berishimiz kerak. Allergik kasalliklar uchun bu juda muhim bo'lib, kasallik qanchalik

tez rivojlanib borsa, organizm uchun shunchalik xavfli hisoblanadi. Allergiya surunkali kasallik bo'lgani uchun allergiyani butunlay organizmdan yo'qotib yuborish anchagina qiyin. Allergiyani davolashda keng qo'llaniladigan davolash usuli bu immunoterapiya usuli hisoblanadi. Allergen miqdori davolash kursi davomida oshirilib boriladi. Bu usul bilan davolash davomida allergik kasallikning ozayishiga yoki butunlay davolanib ketishiga erishiladi. Kimyoviy dorilar bilan davolashda esa allergiya belgilarini bartaraf etishga yordam beradi, ammo uni butunlay davolay olmaydi. Har qanday dori vositasini ishlatishdan oldin shifokor bilan maslahatlashish lozim. Allergik dorilar tarkibida antigistaminlar: ular allergik reaksiyani bir qismi bo'lib, tanada ishlab chiqariladigan gistaminning ta'sirini to'xtatadilar. Ba'zi antigistaminlar bolalar uchun xos emas. Aytib o'tganimizdek allergiyaga qarshi ishlatiladigan dorila vaqtinchalik bular yo tashqi tarafdin (maz, gellar), yoki ichki tarafdin ukol, tabletkalar orqali davolanadi. Bularga; ketotifen, loratal, zodak, alerji, fenikal, kalsiyglyukanat, dektamitazon, dimidrol, prednizalon, suprastin, tiosulfat, gidkartzon kabi dorilar kiradi. Hozirgi kunda keng tarqalgan ketotifen tabletkasi ketatifen moddasi ta'sir qiladi 1ta tabletkada tarkibida laktoza, monogidrati, mikrokristall selyuloza, magniy stearati, talk, suvsiz kolloid kremniy dioksidi [8].

Xulosa: Allergik kasalliklar ko'payib, rivojlanayotgan zamonda bunga qarshi kurashish juda dolzarbdir. Ko'pgina maqolalarda kasallikni birinchi davosi, avvalo bemorlar aynan shu kasallik to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi va oldini olish uchun o'zini o'zi asrashi lozimligi aytilgan. Allergiya immunitet sistemasi bilan bog'liq bo'lganligi uchun ko'proq immunitetni ko'tarib yurish lozimligi va immunoterapiya ta'sir qilish samarasi yuqori ekanligi tan olingan ekan. Albatta atrof-muhit tozaligi ham birinchi o'rinda. Agar tabiat qancha toza bo'lsa shunda allergiya bilan birga yana boshqa turli xil kasalliklar rivojlanishi ham qisqarardi. Shunday ekan biz o'zimiz atrofimizga e'tiborli bo'lsak, tabiatni asrab avaylasak va to'g'ri ovqatlanishni yo'lga qo'ysak kasalliklarga qarshi kurashish osonroq bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, aholiga to'g'ri yo'nalish ko'rsatib, ularga kasalliklar va ularni oldini olish chora-tadbirlari haqida tushuncha berish lozim ekanligi juda muhimdir. Buning uchun aholining o'zi ham harakat qilishi va shifokorlarning maslahatlarini inobatga olib, vaqtida davolanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikramova Shaxnoza Abdurasulovna. Allergik kasalliklarning tarqalganligi turlari va oldini olish chora-tadbirlari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7392089>
2. Soyibjonova K.Ya., Noibjonova X.M. Kattalarda va bolalarda allergiya holatlari. "Экономика и социум" №4(119)-1 2024 www.iupr.ru
3. Дранник Г.Н. Клиническая иммунология и аллергология М., ООО «Медицинское информационное агентство», 2013, с.392

4. Руководство для практических врачей Клиническая аллергология под ред. акад. РАМН, проф. Р.М. Хаитова. Изд-во «Медпресс-информ» 2012, 623с.
5. Sicherer S. H. Food allergy //The Lancet. – 2002. – Т. 360. – №. 9334. – С. 701-710.
6. Muñoz-López F. Allergy: prevention and its problems. The fourth prevention //Allergologia et immunopathologia. – 2002. – Т. 30. – №. 4. – С. 195-202.
7. Elisabeth Nowak and Bianca Schaub. Prevention of Allergies. Implementing Precision Medicine in Best Practices of Chronic Airway Diseases. DOI: <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-813471-9.00017-7>
8. Xojimatov Maqsadbek, Mo'minova Iltijo Izzatillo qizi. Allergik kasalliklar kelib chiqishi uni davolashda ishlatiladigan dori vositalar. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке», № 7 (100), часть 1 февраль, 2023